



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



O'ZBEKISTONDA "IJTIMOIY DAVLAT" KONSEPSIYASI ASOSIDA KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHNING USTUVOR VAZIFALARI

Meliboev Azizjon Nizomiddinovich

Qo'qon davlat universiteti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: aziznizomiddinovich@gmail.com

[UO'K101.1:316.323\(575:1\)](https://orcid.org/orcid/0009-0000-4632-2476)

<https://orcid.org/orcid/0009-0000-4632-2476>

Annotatsiya: Maqolada kambag'allikka qarshi kurashda jamiyatning ijtimoiy farovon rivojlantirishning strategik asoslari, jamiyat farovonligini ta'minlashda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilishning ijtimoiy falsafiy tamonlari haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada fuqarolarning ijtimoiy himoyalaniishi uchun davlatning qulay imkon yaratishi va bu esa jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashdagi eng asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi falsafiy tahlillar asosida aniq misollar bilan ko'rsatib berilgan. Qolaversa, maqolada kambag'allik va qashshoqlikning sabab va oqibatlari, keltirib chiqaruvchi asosiy omillarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, adolat, kambag'allik, qashshoqlik, ijtimoiy farovonlik, strategiya, ijtimoiylik.

Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurish maqsad qilib olindi. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirishga asoslanadi. Zero, "yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga" [1; B- 199.] ko'tarildi.

Ijtimoiy davlat – insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Ijtimoiy davlat g'oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy ma'rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g'oyasini "Fozil odamlar shahri" asarida tarannum etgan [2;].

Boshqa bir ta'rifga ko'ra, ijtimoiy davlat – bu davlatning shunday modeliki, unda ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam berish maqsadida moddiy boyliklarni qayta taqsimlashga qaratilgan siyosat yuritiladi. Demak, davlat o'z fuqarolariga g'amxo'rlik qilishga mas'uliyat bilan yondashishi shart. Zero, ijtimoiy davlat – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z fuqarolariga muayyan darajada farovonlikni kafolatlaydigan davlatdir.

Bunday davlatda jamiyatning har bir ehtiyojmand a'zosini hech istisnosiz ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi qaror topadi, davlat fuqarolar farovonligining muayyan darajasi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Ijtimoiy davlatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar yuqori darajada rivojlangan bo'lib, uning maqsadi insonning shaxs sifatidagi imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini har tomonlama ta'minlashdan iborat. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga soluvchi hokimiyat instituti bo'lmish davlatning tabiatiga xosdir. Bu mohiyatan davlatning o'z fuqarolariga nisbatan ijtimoiy g'amxo'rlikini nazarda tutadi. Bu vazifa mas'uliyat va majburiyatga aylansagina, davlat ijtimoiy davlatga aylanadi.

Ijtimoiy davlat barpo etish Alisher Navoiy bobomizning ham ezgu orzusi bo'lgan. U insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma'rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o'zaro mehr-oqibatli va bag'oyat ahloqiy bo'lish kabi qarashlarni ilgari surgan edi. Shunga o'xshash g'oyalarni Nizomiy larni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Donish singari qator allomalarimiz ijodida ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi "ijtimoiy davlat" tushunchasi ilk bor 1850-yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning ta'kidlashicha, davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o'z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlashi lozim. Bunda inson kamoloti davlat ravnaqi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda keng tarqalgan talqinga binoan, ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqida, o'z fuqarolarining farovonligi, ijtimoiy himoyalanganligi xususida g'amxo'rlik qiladigan davlatdir. Bunday davlat o'z faoliyatini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari: ishsizlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlar, nogironligi bo'lgan insonlar, bolalar, keksalarni ijtimoiy himoyalash bilan uzviy olib boradi.

Bunda "ijtimoiylik"ning asosiy sharti insonga uning qadri, sha'ni va erkini asrab-avaylab munosabatda bo'lishdir. Bu, o'z navbatida, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishi va bu kafolatlanganligi bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy davlatning mohiyati uning oqilona ijtimoiy siyosatni amalga oshirishida, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado etishida namoyon bo'ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi.

Ijtimoiy davlatdagi ijtimoiy siyosatning asosiy konstitutsiyaviy asoslari: ish bilan ta'minlash va mehnat muhofazasi; mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini kafolatlash[3].

Ijtimoiy davlatning belgilaridan biri sifatida aholining daromadlarini yirik mulkdorlarga zarar yetkazmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi ta'minlanganligini ko'rsatish mumkin. Bunday davlatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti hamda fuqarolik jamiyati qaror topadi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlangan tarmog'i yaratiladi; davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi; har bir fuqaroga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun birlamchi zaruriy sharoitlar kafolatlanadi; ijtimoiy sug'urta

badallarining rivojlangan tizimi joriy qilinadi; byudjetni shakllantiruvchi soliqlarning va ijtimoiy sohaga to'lovlarning muayyan miqdori ta'minlanadi [4;].

Ijtimoiy davlatda, shuningdek, aholining barcha qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlangan tizimi yo'lga qo'yiladi; hokimiyatning bo'linishini va davlat hokimiyatining har bir tarmog'i o'z funksiyalarini aniq amalga oshirishini ta'minlovchi rivojlangan huquq tizimi yaratiladi.

Dunyo amaliyotida **"Ijtimoiy davlat"** maqomiga ega davlatlar iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan, davlatning boshqaruv tizimi ijtimoiy yo'naltirilgan, fuqarolik jamiyati har tomonlama shakllangan, davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni amaliyotga joriy etish tajribasi tizimlashtirilgan bo'ladi. Shu bilan birga mazkur mamlakatlar har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitini ta'minlash, yashash uchun teng sharoitlar yaratish hamda o'z fuqarolari oldida ko'plab ijtimoiy ma'suliyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy davlat tamoyillari qanday hal etilganligi borasidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ularda asosan aholining ijtimoiy jihatdan himoyalalmagan qismiga ishsizlar, nafaqaga chiqqan fuqarolar, imkoniyati cheklangan shaxslar hamda ota-onasi yo'q bolalarni kiritish mumkin. Mazkur toifaga kirgan fuqarolarni himoya qilish, ularni moliyaviy rag'batlantirish ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy davlatchilik tamoyillari bo'yicha xorijiy tajribani o'rgangan mutaxassislar, tadqiqotchilar va olimlar bu mamlakatlarni shartli ravishda Skandivaniya, Kontinental va Amerika-Britaniya (Liberal) guruhlariga ajratishni tavsiya etishadi.

1-guruhga Daniya, Norvegiya, Finlyandiya hamda Shvetsiya davlatlari kirib, mazkur guruhdagi mamlakatlarni mutaxassislar Skandinaviya modeli sifatida e'tirof etishadi. Bu mamlakatlarda davlat jamiyat oldidagi o'zining ijtimoiy majburiyatlarining katta qismini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiradi. Shu bilan birga mazkur mamlakatlarda davlat o'zining ijtimoiy majburiyatlarini bajarishda birinchi navbatda fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim olish bilan bog'liq faoliyati, sog'liqni saqlash tizimi, bolalar va yoshlar masalalarini hal etish bilan birga keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni amalga oshiradi. Bundan ishlar davlat byujeti va turli ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bunday ishlarni amalga oshirish va muvofiqlashtirish bevosita hududiy munitsipalitetlar, ya'ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2-guruhdan Avstriya, Belgiya, Germaniya hamda Fransiya davlatlari joy olib, bu guruhni mutaxassislar ijtimoiy davlatning kontinental modeli sifatida tan olishadi. Bu mamlakatlarda davlat o'zining ijtimoiy vazifalarini bajarishda asosan aholining yordamga muhtoj qatlamiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas'ul hisoblanadi. Ijtimoiy yordam puli bilan bog'liq xarajatlar davlat hisobi va xususiy ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan qoplanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak ijtimoiy ta'minot byujetdan ajratiladigan mablag'lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug'urta badallari orqali amalga oshiriladi. Biroq bu modeldagi davlatlarda hukumat, mahalliy boshqaruv organlari aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydi.

3-guruhni mutaxassislar Amerika-Britaniya yoki Liberal model sifatida ta'kidlab, bu modelga Angliya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Irlandiya kabi mamlakatlarni kiritishgan. Bu modelda davlatning ijtimoiy sohadagi ishtiroki boshqa modellarga nisbatan juda past hisoblanadi. Davlat tomonidan ijtimoiy dasturlarni

amalga oshirishda xarajatlar asosan xususiy jamg'arma va sug'urta fondlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun mazkur mamlakatlarda davlat fuqarolar uchun eng kam daromad miqdorini belgilash, nazorat qilish hamda aholining zaif va nochor qatlamlari farovonligini ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan.

Xorijiy mamlakatlardagi ijtimoiy davlat tamoyillari tahlili shuni ko'rsatadiki, davlatlarning asosiy hujjatlarida "ijtimoiy davlat" tushunchasining mustahkamlanishi jamiyatda ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyani ta'minlash vositalari asosida boshqaruv tizimiga asoslanishidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyili ustuvorligi asosida kambag'allikni qisqartirishda quyidagi imkoniyatlar paydo bo'ladi:

Birinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy sohaga yanada ustuvorlik berish orqali fuqarolar tengligini ta'minlash, ijtimoiy tabaqalashuvni oldini olish, ijtimoiy yordamga muhtoj aholini davlat tomonidan har tomonlama himoya qilish choralari ko'rish davlat tomonidan kafolatlanadi;

Ikkinchidan, barcha fuqarolarimizga, xususan, ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga davlat tomonidan birlamchi malakali tibbiy xizmatlarni bepul amalga oshirish hamda sifatli ta'lim olish va shunga o'xshash xizmatlar ko'rsatish qonun jihatidan mustahkamlanadi;

Uchinchidan, ijtimoiy davlat g'oyasini Konstitutsiyamizda mustahkamlanishi jamiyatda "ijtimoiy tabaqalanish"ni kamaytirish, "ijtimoiy tenglik" hamda "ijtimoiy adolat" tamoyillari asosida boshqarishni hukumat zimmasiga oladi va shu tamoyillarni bajarilishiga kafolat beradi.

Buning uchun esa, yurtimizda so'nggi yillarda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning institutsional asoslari yaratilib, kambag'allikni qisqartirish masalalarini muvofiqlashtiruvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yo'lga qo'yildi.

Ikkinchidan, ehtiyojmand aholini moddiy va nomoddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida joylardagi to'rtta sektor, mahalla organlari, keng jamoatchilik vakillari hamda deputatlar bilan birgalikda kambag'al va moddiy yordamga muhtoj oilalar ro'yxati – "Temir daftar" tizimi tashkil etildi.

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlarning taklif va tavsiyalari asosida aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibi amaliyotga joriy etildi. Mazkur uslubiyot O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastaklardan biri bo'lib, ijtimoiy standartlarni belgilashda foydalanilmoqda.

To'rtinchidan, o'rta va uzoq muddatlarda kambag'allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, "2021—2030-yillarga qadar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" ishlab chiqildi. Unda kambag'allikni qisqartirish uchun kompleks yondashilib, ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Albatta, bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bu boradagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy sohalarning hamkorlikdagi faoliyati hamda amalga oshirilayotgan ishlarning shaffofligini ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi [5;]. Kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini va hayot farovonligini oshirish har bir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida

ushbu masalalar davlat rahbarlarining ko'plab chiqishlarida va xalqaro tashkilotlarning kun tartibida aks ettirilgan. Shu maqsadda oldimizga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish, ya'ni kambag'allikni qisqartirish, insonlar hayoti sifatini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarni dunyo va mintaqa ekspertlari bilan birgalikda muhokama qilish hamda fikr almashish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida, 2022-yilning 26-27-may kunlari Buxoro shahrida ilk bor "O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish xalqaro forumi" o'tkazildi. Unda kambag'allik mamlakat barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi jiddiy muammo sifatida e'tirof etilib, mazkur yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy masalalari sifatida quyidagilar nazarda tutildi:

Birinchidan, kambag'allik jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir qiladi. Jinoyatchilik aholining kam ta'minlangan qatlamlari orasida keng tarqaladi va ular "daromad olish" ning jinoiy shakllariga murojaat qilish ehtimoli katta hisoblanadi.

Ikkinchidan, kambag'allikning ikkinchi salbiy oqibati – turmush darajasi past va daromadlari yuqori bo'lmagan aholi qatlamlarining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi..

Uchinchidan, kambag'allik alkogolizm va giyohvandlikning o'sishiga ham bevosita ta'sir qiladi.

To'rtinchidan, kambag'allikning yuqori darajasi jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Beshinchidan, aholining umumiy ma'lumot darajasi pasayib boraveradi. Shuning uchun ham, kambag'allikning salbiy oqibatlarini e'tiborga olgan holda, mamlakatimizda unga qarshi kurashning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biriga aylandi [6;].

Shuningdek, ijtimoiy davlat strategiyasi asosida maktab bitiruvchilarini kasbga o'rgatish masalasi yoshlarning bandligini ta'minlash borasida ustuvor yechimlardan biri sanaladi. Maqsad — yoshlarni ham bilimli, ham kasbli qilish va natijada ularni ish bilan ta'minlash. Bu yo'nalishda ham aniq tizimli mexanizm ishlab chiqildi, ya'ni joriy yildan boshlab yangi dastur amalga oshirilib, unga ko'ra, har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi turmush sharoitini yaxshilashga, jumladan, aholining ehtiyojmand qatlami bandligini ta'minlash orqali ular uchun doimiy daromad manbaini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kambag'allikni qisqartirishning ustuvorligi asosida ijtimoiy nafaqalarning qamrov darajasi kamida ikki marotaba oshirilib, ularni tayinlash jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun avtomatlashtirilgan elektron tizim joriy etildi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlami va kambag'allik holatiga tushish xatari yuqori bo'lgan aholi bilan manzilli ishlash mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari yaratildi.

Bundan tashqari, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bilan shug'ullanadigan mutlaqo yangi tizim – hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari institutlari joriy etildi[7;].

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga qarshi kurashish, bu borada choratadbirlar ishlab chiqish va amaliy natijalarga erishishga alohida e'tibor qaratilib, aholini ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama qo'llabquvvatlash sohasida izchil hamda samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqilayotgan dasturlar, amalga

oshirilayotgan choratadbirlar bevosita ehtiyojmand aholiga ko'mak ko'rsatish, ularni kambag'allikdan chiqarish hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratishga yo'naltirilmoqda.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi keng qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beriladigan bo'lsa, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanini ta'kidlash kerak. Ayni tushuncha orqali mamlakat aholisi o'rtasida mavjud bo'lgan kambag'allik muammosi va uning mohiyati, yechimlari masalalariga bog'lanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishi natijasida, kambag'allikni jilovlash, uni qisqartirish, qashshoqlikni oldini olish, qashshoqlikni insonlar ruhiyatiga kirib bormasligiga erishish mumkin bo'ladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy faroconlikning ta'minlashning poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 199.
2. https://uza.uz/uz/posts/izhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari_471933?q=%2Fposts%2Fizhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari_471933
3. https://uza.uz/uz/posts/izhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari_471933?q=%2Fposts%2Fizhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari_471933
4. <https://adolat24.uz/?p=23388> // Ijtimoiy davlat — muhim konstitutsiyaviy tamoyil
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 440-441.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 438-439.
7. "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. <https://regulation.gov.uz/oz/d/61526>